



## KICHIK BIZNESNI MANZILLI QO‘LLAB-QUVVATLASH - KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI

---

*Jo‘raxonov Muzaffar Eskandarovich*  
*Andijon mashinasozlik instituti*  
*Iqtisodiyot kafedراس dotsenti, t.f.f.d*  
*Jololov Jololiddin Xayrullo o‘g‘li*  
*Andijon mashinasozlik instituti*  
*“Menejment” yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik biznes faoliyatining davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlanishi mamlakatimizdagi bir qancha muammolarga yechim bo‘lishi ko‘rsatilgan. Jumladan kichik biznesni manzilli qo‘llab quvvatlash kambag‘alikkni qisqartirishni muhim omili ekanligi bo‘yicha bir qator fikr mulohazalar yuritilgan. Davlatning kichik biznes faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi bu faoliyatning tezroq rivojlanishiga asos bo‘ladi. Yan shuni ta‘kidlab o‘tish lozimki, maqolada mamlakatimizda qabul qilinayotgan qonunlar va huquqiy hujjatlardan foydalanildi.

**Kalit so‘zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlik ulushi, tadbirkorlik sub‘ektlari, xorijiy investitsiya, kredit mablag‘lari, kambag‘alikk darajasi, kambag‘alikkni qisqartirish, ish o‘rinlari.

**Kirish.** Iqtisodiyot aniq raqamlar, hisob-kitoblar bilan birga, odamlar turmush tarzida yuz berayotgan real o‘zgarishlar, natijadorlikni xush ko‘radi. Davlat manfaatlarigagina xizmat qiladigan iqtisodiyot rivojlanishdan to‘xtaydi. Oxirgi yillarda Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohot va yangilanishlar avvalida iqtisodiyotimizdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari qamrovini kengaytirish, uning bevosita aholi turmushiga ta‘sirini oshirishga e‘tibor qaratilayotgani boisi ham shundan.

Bu boradagi salmoq va natijalar jadal sur‘atlarda oshib borayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Aholi daromadlarida o‘shish, turmush sharoitida sezilarli o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Statistik ma‘lumotlar ham 2016-2020-yillarda yurtimiz odamlarining umumiy daromadlari 2,6 baravardan ko‘proqqa ortganini ko‘rsatyapti.

Mazkur yo‘nalishda jahon maydonida egallab turgan o‘rnimiz ham yil sayin yuqorilab bormoqda. Xususan, 2021-yil 26-mayda o‘tkazilgan Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlash bo‘yicha Respublika Kengashining navbatdagi yig‘ilishida esa Global innovatsion indeksda O‘zbekiston 2015-yilga nisbatan o‘z o‘rnini 29 pog‘onaga yaxshilab, 131 ta mamlakat orasida 93-o‘rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari



orasida 4-o'rinni qayd etgani ta'kidlandi. Bu kabi muvaffaqiyatlarning bosh omillaridan biri — mamlakatimizda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat hamda uning tarkibidan o'rin olgan chora-tadbirlar yo'nalishlarining to'g'ri shakllantirilgani bilan bog'liq. O'zbekiston taraqqiyotining yangi davrida, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy siyosatning muhim va samarali yo'nalishlaridan biriga aylandi [1].

Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jahon mamlakatlari tajribasida o'zining yuksak natija va muvaffaqiyatlari bilan mustahkam o'rin egallagan bo'lib, aksariyat xalqlarda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 60-70 foizni tashkil etadi. Kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiyotdagi jo'shqinlik va samarali raqobat muhiti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, iste'mol sektorini kengaytirish orqali talabni rag'batlantirish, iste'mol bozorini tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, byudjet tushumlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ko'plab rivojlangan davlatlar kichik biznes faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi.

O'zbekiston mustaqilligining o'tgan yillariga nazar tashlasak, yurtimizda kichik va o'rta biznes yo'nalishi qo'shni davlatlarga nisbatan sekin rivojlangani, ko'rsatkichlar sezilar-sezilmas darajada bo'lgani, katta-katta bizneslar ma'lum insonlar qo'lida bo'lib, aholining asosiy qatlami ularning qo'l ostida ishlaganini ko'ramiz. Oddiy odamlar uchun tadbirkorlik uddalab bo'lmas mashaqqatdek ko'rinardi. Yuqori boj to'lovlari, er olish, korxonada ochishdagi qator to'siqlar, bironing cho'ntagiga pul qistirmasang, bitmaydigan ishlar, bir amallab biznesni yo'lga qo'yib olganda ham, har kuni eshik qoqadigan soliqchilarga dosh berish oson emasdi. Shuning uchunmi, odamlar tadbirkorlik qilishdan ko'ra, "och qornim, ting qulog'im" qabilida ish tutishni afzal bilgan.

Bugun Yangi O'zbekiston iborasini faxr bilan aytayotganimiz bejiz emas. Boisi, yaqin 4-5 yil oldin ana shu ikki jumla zamirida boshlangan ulkan islohotlar odamlarning o'z imkoniyatlaridan keng foydalanish, istalgan sohada yangiliklar yaratishga qo'rqmay qadam tashlash, eng muhimi, mustaqil tadbirkor sifatida o'zini sinab ko'rish imkoniyatini beryapti. Bu borada, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Haqiqatan ham, biz faqat faol tadbirkorlik, tinimsiz mehnat va intilish orqali taraqqiyotga, farovon hayotga erisha olamiz", deya ta'kidlagan so'zlari xalqimizga yanada ishonch, kuch berdi [2].

Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy - aynan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati nimalarda namoyon bo'lmoqda?



Eng avvalo, iqtisodiyotning etakchi soha va tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushining oshishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlik ta'minlanishining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Ma'lumki, tadbirkorlik - bu tashabbus va faollik asosida kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan turli xatarlarni hisobga olib, mas'uliyat va javobgarlik bilan amalga oshiriluvchi iqtisodiy faoliyatdir. U erkinlik, ijodkorlik hamda raqobat muhiti uyg'unligida juda katta bunyodkorlik kuchini hosil qiladi. Ayniqsa, faoliyat ko'lami jihatidan nisbatan ixcham bo'lgan kichik tadbirkorlik iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarga tezlik bilan moslasha olish, iste'molchining did va qiziqishlarini anglash va e'tiborga olish, ichki imkoniyatlardan to'liq foydalanish, raqobat muhitini kuchaytirgan holda iqtisodiyotga jo'shqinlik baxsh etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Yurtimizda ushbu yo'nalishni qo'llab-quvvatlash va barcha zarur sharoitlarni yaratib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi tobora ortib boryapti. Aniq raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu boradagi ko'rsatkich 1991-yilda atigi 1,5 foiz, 2000-yilda 31 foizni tashkil etgan edi. 2016-yilda mazkur sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 64,9 foizga yetdi. Bu raqamlar yil sayin ortsa ortyaptiki, aslo, orqaga pastlayotgani yo'q. Xususan, o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik sub'ektlari soni 2016-yildagi 210,6 ming birlikdan 2020-yilda 411,2 ming birlikka yetdi. Umumiy korxonalar va tashkilotlar tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2020-yilda 86,5 foizga qadar o'sdi [3].

2017-yildan boshlab mamlakatimizning yirik sanoat obyektlariga juda katta hajmda xorijiy investitsiya va kredit mablag'lari jalb etilishi natijasida ulardagi ishlab chiqarish hajmi keskin o'sa boshladi. Agar yirik korxonalar va birlashmalar majoziy ma'noda iqtisodiyot organizmining suyak (skelet) qismi deb hisoblansa, u holda kichik biznes ushbu qismga qayishqoqlik, moslashuvchanlik baxsh etuvchi, uning bir maromdagi harakatini ta'minlovchi mushak to'qima hisoblanadi. Bu jarayon esa yangi korxonalarining tashkil topishi orqali ta'minlanadi. Ya'ni, kichik biznes korxonalarini iqtisodiyotdagi talab jadallik bilan o'sib borayotgan tarmoq va sohalarga javoban yangi ishlab chiqarishni tashkil etadi.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, 2017-2020-yillar mobaynida mamlakatimizda jami 288 mingdan ortiq korxonalar tashkil etildi. Shundan 14,8 mingtasi yirik korxonalar, 273,2 mingtasi kichik biznes korxonalarini hissasiga to'g'ri keladi.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2023-yilda aholining kambag'allik darajasi va unga ta'sir etgan omillarni tahlil qildi.



O'zbekistonda kambag'allik darajasini kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda ushbu ko'rsatkich 14,1 foizdan 11,0 foizgacha pasaydi. Bunday natijaga erishilishiga bir qator omillar ta'sir etgan.

Asosiy omillar sifatida quyidagilarni qayd etish lozim:

- 2023-yilda mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishildi va u 2022-yildagiga nisbatan 6,0 foizni tashkil etdi. Bu davrda inflyasiya darajasining oshishi nisbatan sekinlashdi (12,3 foizdan 8,8 foizgacha). Shundan kelib chiqib, aholining eng muhim oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatan xarid qobiliyati oshishiga erishildi;

- aholining umumiy daromadlari 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan 115,0 foizga oshdi. Aholining umumiy daromadida mehnatdan olinadigan daromadlarning 61,6 foizdan 64,0 foizga o'sishi ham aholi kambag'allik darajasining pasayishiga ta'sir ko'rsatdi;

- tahlil davrida o'rtacha oylik ish haqi sezilarli darajada, ya'ni 2022-yildagiga nisbatan 117,2 foizga oshib, 4 551,4 ming so'mni tashkil etdi. Ushbu tendensiyani deyarli barcha hududlarda va sohalarda kuzatish mumkin. 2023-yilning 1-maydan boshlab, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 920 ming so'mdan 980 ming so'mga, 1-dekabrda boshlab esa 1 050 ming so'mga oshirildi. Umuman olganda, o'tgan yil mobaynida ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarning miqdori jami 14,0 foizga oshdi.

Kambag'allikni qisqartirishga bevosita ta'sir etgan omillar quyidagilardan iborat:

- kambag'allikni qisqartirishdagi eng muhim omil bu aholi bandlik darajasini oshirish, ishsizlikni qisqartirishdir. Shu nuqtai nazardan, 2023-yilda 4,1 mln. kishining bandligi ta'minlandi. Buning 2,3 mln. nafari doimiy va mavsumiy ishlarga, 112,8 ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi, 1,6 mln. nafari esa o'zini o'zi band qilish hisobiga ish bilan ta'minlandi;

- "20 ming tadbirkor 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasida 6 745 ta tadbirkorlik sub'ekti bilan 455,0 ming kishining bandligini ta'minlash bo'yicha hamkorlik shartnomalari imzolandi;

- 472 mingta oilaviy tadbirkorlik loyihasiga 10 trln. so'm imtiyozli kredit va 73 ming nafar ishsiz fuqaroga 356 mlrd. so'm subsidiya ajratildi;

- kambag'allikni qisqartirish maqsadida mahallada faoliyat olib borayotgan hokim yordamchilari tavsiyasi bilan 241,3 ming nafar fuqaroga qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish uchun ijara asosida yer maydonlari ajratildi;

- kambag'al oilalarda yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatishga e'tibor yanada kuchaytirildi. Jumladan, o'tgan yilda 181



ming nafar ishsiz fuqaro kasb-hunarga o'qitildi va 183,8 mingta yangi tadbirkorlik sub'ekti tashkil etildi;

“O‘zbekiston-2030” strategiyasiga muvofiq, 2024-yilda kambag‘allik darajasini 10,0 foizgacha tushirish rejalashtirilgan [4].

Prezidentimiz tomonidan 2022- yilga “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nom berildi. Albatta, yilga bunday nom berilishi xalqimizning hayoti yanada farovon va mazmunli bo‘lishi uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishiga, inson qadrini ulug‘lash, mahallar obodligiga erishish, olis qishloqlarda ham shahar qiyofasini aks ettirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishiga ishoradir, deb bilaman. Inson qadrini ulug‘lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Tabrikda 2022 yilda iqtisodiyotimiz tarmoqlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish e‘tibor markazida bo‘lishi, aholi daromadlarini ko‘paytirish, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirishga qaratilgan muhim ishlar izchil davom ettirilishi aytildiki, bu aholini ish bilan ta‘minlash, kambag‘allikka barham berishning eng to‘g‘ri va oqilona yo‘lidir. Zero, yangi ish o‘rinlari yaratilsa, ming-minglab yoshlar, xotin-qizlar daromad manbaiga ega bo‘ladilar(jadval).

Prezidentimiz tomonidan 2022- yilga “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nom berildi. Albatta, yilga bunday nom berilishi xalqimizning hayoti yanada farovon va mazmunli bo‘lishi uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishiga, inson qadrini ulug‘lash, mahallar obodligiga erishish, olis qishloqlarda ham shahar qiyofasini aks ettirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishiga ishoradir, deb bilaman. Inson qadrini ulug‘lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Tabrikda 2022 yilda iqtisodiyotimiz tarmoqlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish e‘tibor markazida bo‘lishi, aholi daromadlarini ko‘paytirish, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirishga qaratilgan muhim ishlar izchil davom ettirilishi aytildiki, bu aholini ish bilan ta‘minlash, kambag‘allikka barham berishning eng to‘g‘ri va oqilona yo‘lidir. Zero, yangi ish o‘rinlari yaratilsa, ming-minglab yoshlar, xotin-qizlar daromad manbaiga ega bo‘ladilar.



## Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo'lganlar soni [5]

Jadval

Klassifikator	2010	2011	2023-Q1	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023-Q2
O'zbekiston Respublikasi	8643,9	8950,7	10160,9	9239,7	9604	9950,8	10170,4	10397,5	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10080,6	10131,1	10278,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	412,7	426,8	529,4	426,2	450,2	464,2	469,4	479,6	486	532,8	532,9	524,8	521,6	528,9	559,2
Andijon viloyati	901,2	943,2	1045,5	973,8	1008	1042	1066,3	1095,2	1110,4	1035,3	1054,6	989,9	1020	1040	1051
Buxoro viloyati	587,7	602,6	579,5	622,2	642,6	648,5	647,2	648,2	648,7	619,8	606,9	590,5	576,8	579,6	591,4
Jizzax viloyati	298,7	310,2	422,4	323,6	336,1	348,8	360,8	372,2	378,7	384,5	427,2	418,7	434,1	422,6	424,7
Qashqadaryo viloyati	726,6	764,1	938,7	797,9	835,7	872,6	910	943,9	973,9	965,8	958,1	914,1	943,7	943,8	946,8
Navoiy viloyati	227,5	231,5	211	246	249,1	253,1	254	254,5	250,6	229,3	227	207,4	214,5	209,7	216,8
Namangan viloyati	641,4	674,8	888,8	703,6	738,6	778	806,9	834,6	863,9	872,3	914,7	888,4	907,7	891,9	891,3
Samarqand viloyati	1009	1045,5	1211,5	1075,1	1129,2	1174,3	1213,9	1254,6	1286,9	1216,1	1205,5	1158,3	1174,7	1197,8	1211
Surxondaryo viloyati	588,6	623,5	775,4	653,5	688,2	720,6	747,3	778,2	802,6	781	814,9	770,3	785,5	773,6	780,2
Sirdaryo viloyati	248	257,2	248,9	259,6	270,5	277,5	278,6	279,8	278,4	274,2	267,4	247,5	248,7	244,1	243,5
Toshkent viloyati	839,9	869,2	844,1	901,7	938	971,1	984,6	989,8	968,5	898,8	897,8	833,4	853,3	843,3	856,3
Farg'ona viloyati	1031,8	1043,9	1184,6	1081,2	1129,2	1170,6	1192,5	1214,4	1229,3	1144,5	1185	1136,3	1164,7	1190,4	1215,4
Xorazm viloyati	475,8	497,8	581,3	509	518,7	557,2	573,3	590,3	599,2	573,4	591,9	567,9	574,3	579,3	612,2
Toshkent shahri	655	660,4	699,8	666,3	669,9	672,3	665,6	662,2	664,4	601	635	618,2	661	686,1	679,1

Prezidentimiz tomonidan 2022- yilga “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nom berildi. Albatta, yilga bunday nom berilishi xalqimizning hayoti yanada farovon va mazmunli bo‘lishi uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishiga, inson qadrini ulug‘lash, mahallar obodligiga erishish, olis qishloqlarda ham shahar qiyofasini aks ettirish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishiga ishoradir, deb bilaman. Inson qadrini ulug‘lash – yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta‘minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Tabrikda 2022 yilda iqtisodiyotimiz tarmoqlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish e‘tibor markazida bo‘lishi, aholi daromadlarini ko‘paytirish, ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirishga qaratilgan muhim ishlar izchil davom ettirilishi aytildiki, bu aholini ish bilan ta‘minlash, kambag‘allikka barham berishning eng to‘g‘ri va oqilona yo‘lidir. Zero, yangi ish o‘rinlari yaratilsa, ming-minglab yoshlar, xotin-qizlar daromad manbaiga ega bo‘ladilar.

Prezidentimiz ish o‘rinlari yaratish barcha darajadagi rahbarlarning e‘tibor markazida turishi kerakligini bejiz bot-bot ta‘kidlamayaptilar. Chunki odamlar ishli bo‘lsa, aholi jon boshiga daromad ko‘paysa, hayotda katta maqsadlar bilan yashaydi, oilasida tinchlik, ishida unum bo‘ladi. Mamlakatimizda aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha butunlay yangi tizim yaratilgani va bu boradagi ishlar izchil davom etayotgani albatta, quvonarlidir. Ayniqsa, “Ayollar daftari”, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”ning joriy etilgani ishsizlikka barham berishda katta o‘rin tutmoqda.



Prezidentimiz tomonidan Yangi O‘zbekiston strategiyasida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, “Faol tadbirkorlik va manzilli moliyaviy ko‘mak – kambag‘allikni qisqartirishning muhim omili” shiori ostida partiyamizning asosiy elektorati bo‘lgan tadbirkorlarni yanada qo‘llab-quvvatlash borasida tizimli ishlarni olib bormoqdamiz. Mamlakatimizda tadbirkorlik rivojlansa, yangi ish o‘rinlari yaratilsa, Yurtboshimiz aytganidek, mamlakatimizda 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 barobar qisqartirishning uddasidan chiqamiz.

Bugungi kunda deputatlarimiz, partiya xodimlari ham o‘z ish rejalarini tayyorlashda hududlar kesimi va partiyamizning Saylovoldi dasturidan kelib chiqib barcha soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar.

O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi mamlakatdagi yetakchi siyosiy kuch sifatida aholini munosib ish bilan ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim ustuvorligi sifatida ishsizlik darajasini qisqartirishga alohida e‘tibor qaratmoqda.

Davlatimiz rahbari xalqimizga yo‘llagan bayram tabrigida yurtimizni yanada obod qilish, zamonaviy uy-joylar, jumladan, barcha hududlarimizda “Yangi O‘zbekiston massivlari”ni qurish asosiy vazifalarimizdan biri bo‘lishi, xalqimizning hayoti yanada farovon va mazmunli bo‘lishi uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilishini bildirdi. Bu o‘z navbatida, xalqimizning uy-joyga bo‘lgan doimiy o‘sib borayotgan talabini qondirish, ertangi kunimiz, farovon hayotimiz sari qo‘yilgan muhim qadamdir.

Mamlakatimizda 2026-yil yakuniga qadar kambag‘allikni kamida 2 barobar qisqartirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi reja qilingan:

**Birinchi**dan, tadbirkorlikni yanada qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratiladi:

- Tadbirkorlar bilan o‘tkazilgan ochiq muloqot doirasida shakllantirilgan 7 ta yo‘nalish bo‘yicha 60 ga yaqin yangi tashabbus va takliflarni nazarda tutuvchi dastur amalga oshiriladi.

- 2022-yildan boshlab korxonalarining mol-mulk solig‘i stavkasi 2 foizdan 1,5 foizga kamaytirilib, tadbirkorlar ixtiyorida 500 milliard so‘m mablag‘ qoldiriladi.

- 2023-yildan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 15 foizdan 12 foizga tushiriladi, yuridik shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari birlashtirilib, yagona ko‘chmas mulk solig‘i joriy qilinadi.

- Bank, moliya, telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo‘nalishlarida foyda solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushiriladi va barcha tadbirkorlik sub‘ektlari uchun bir xil bo‘ladi.



- Yo'l qurilishi, issiqlik ta'minoti, obodonlashtirish xizmatlari singari 25 ta faoliyat turi bo'yicha monopoliya tugatilib, ushbu sohalarda tadbirkorlar uchun keng yo'l ochiladi.

- Tuman va shaharlardagi tadbirkorlikka ko'maklashadigan mavjud tuzilmalar negizida Tadbirkorlar kengashi tashkil etiladi.

**Ikkinchidan**, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratiladi:

- Kasbga o'qitish ko'lami 2 barobar oshirilib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaro kasb-hunarlarga o'qitiladi va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtiroki 30 foizga yetkaziladi.

- Kasbiy ta'lim bilan tizimli ravishda shug'ullanish masalalari to'liq ravishda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ixtiyoriga o'tkaziladi.

- Norasmiy sektorda ishlayotgan 2,5 million nafar fuqaroning bandligini legallashtirishga yordam berish orqali ularning ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan to'liq foydalanishiga imkoniyat yaratiladi.

- Hududlarda servis sohalari ko'lamini kengaytirish orqali xizmat ko'rsatish hajmi 3 barobar oshiriladi va buning evaziga 3,5 millionta yangi ish o'rni yaratiladi.

**Uchinchidan**, jamiyatda ayollarning mavqeini oshirishga qaratilgan siyosatni izchil davom ettiriladi:

- Xotin-qizlarni o'qitish, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish va ularning ishlashi uchun sharoit yaratish orqali ayollar orasidagi ishsizlik darajasi 2 marta kamaytiriladi.

- 700 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizlar davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitiladi.

- Ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun oliy ta'lim grantlari har yili oshirib boriladi va 2026 yilga qadar 6 mingtaga yetkaziladi.

- Kelgusi uch yilda uy-joyga muhtoj 10 mingdan ziyod xotin-qizlarga imtiyozli shartlar asosida uy-joylar ajratiladi.

**To'rtinchidan**, ehtiyojmand aholi qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish ustida jiddiy ish olib boriladi:

- Ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan ta'minlash darajasi 60 foizdan 100 foizga yetkazilib, ularning barchasi davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam bilan ta'minlanadi.

- Bazaviy pensiya hajmini hisoblashda ish haqining chegaraviy miqdori 10 barobardan 12 barobargacha ko'paytiriladi.

- Uy-joyga muhtoj fuqarolarga turar joylarni ijtimoiy ijaraga berish tizimi joriy etiladi.





- Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini 3 barobar oshirishni ko'zda tutuvchi Milliy dastur ishlab chiqilib, amalga oshiriladi [6].

**Xulosa.** Umumiy qilib aytganda, davlatning biznes yuritishga qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi orqali asta sekinlik bilan mamlakatimizdagi ishsizlar sonini kamayishiga olib keladi. Bu bilan birga yurtimizdagi kambag'allar soni ham kamayadi. Jahon miqiyosida ham e'tirof etilishimizga sabab bo'la oladi. Shu kungacha qabul qilingan qaror va bir qator qonuniy hujjatlar amalda o'z ifodasini topib davlatimiz rivojiga hissa qo'shdi. O'ylaymanki kelgusida qabul qilinadigan barcha hujjatlar ham amalda o'z natijasini ko'rsatadi

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes--iqtisodiyotning-qon-tomiri>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi, <https://www.stat.uz/uz/>
4. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/kambagallikni-qisqartirishning-muhim-omillari-aniqlandi>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi, <https://www.stat.uz/uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.